

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

Jusupova Anjim Tansiqbaevna

Приоритетные направления развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане

Жусупова Анжим Тансыкбаевна

Priority directions for the development of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan

Jusupova Anjim Tansykbaevna

Received: May 4, 2025 Revised: May 8, 2025 ■ Accepted: May 9, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, jumladan tartibga solish muhitini takomillashtirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, raqamlashtirish, eksportni qo'llab-quvvatlash, ayollar va yoshlar tadbirkorligini rag'batlantirish, ekologik barqarorlik masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot normativ-huquqiy baza va amaliy misollar tahliliga asoslangan.
- **Kalit so'zlar:** kichik biznes, davlat qo'llab-quvvatlashi, raqamlashtirish, tadbirkorlik, subsidiyalar, soliq imtiyozlari, avtomatlashtirish, onlayn savdo.
- **Аннотация.** В статье рассматриваются приоритетные направления развития малого бизнеса и предпринимательства в Республике Узбекистан, в том числе совершенствование нормативно-правовой базы, финансовая поддержка, цифровизация. Рассмотрены вопросы поддержки экспорта, развития женского и молодежного предпринимательства, экологической устойчивости. Исследование основано на анализе нормативной базы и практических примерах.
- **Ключевые слова:** малый бизнес, государственная поддержка, цифровизация, предпринимательство, субсидии, налоговые льготы, автоматизация, онлайн-продажи.
- **Abstract.** The article considers the priority areas of development of small business and entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan, including improving the regulatory environment, financial support, digitalization, export support, encouraging women's and youth entrepreneurship, environmental sustainability. The study is based on an analysis of the regulatory framework and practical examples.
- **Keywords:** small business, state support, digitalization, entrepreneurship, subsidies, tax incentives, automation, online sales.

KIRISH

Kichik biznes O'zbekiston iqtisodiyotida aholini ish bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. So'nggi yillarda mamlakat hukumati tomonidan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, qulay tadbirkorlik muhitini yaratish va investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga erishish uchun raqamlashtirish, globallashtirish va ekologik-iqtisodiy o'zgarishlar tahdidlariga yanada moslashish talab etiladi.

O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlangan bo'lib, 1991-yilda mamlakat bozor islohotlari yo'lga o'tdi. Bu davrda hukumat iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosatini faol amalga oshira boshladi, markazlashgan rejalashtirishdan bozor mexanizmlariga o'tildi.

1990-yillarning o'rtalaridayoq tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning huquqiy poydevori yaratildi: xususiy mulk, kichik biznes va tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida qonunlar qabul qilindi.

Ayniqsa, 2017-yildan keyin kichik biznesni rivojlantirishga katta turtki berildi, biznesni erkinlashtirish, xo'jalik yuritish tartib-tamoillarini soddalashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha faol chora-tadbirlar amalga oshirila boshladi. Bozor islohotlarining kuchayishi sharoitida tadbirkorlik faolligi va biznes yuritish uslubi korxonaning muvaffaqiyatli rivojlanishining asosiy omillariga aylanmoqda [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va davlat tuzilmalarining hisobotlari tahliliga asoslangan. Kichik biznesning so'nggi yillardagi rivojlanish dinamikasi taqqoslandi va uning o'sishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes O'zbekiston iqtisodiyotida aholini ish bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning YalMdagi ulushi 51,2% ni tashkil etdi (manba: stat.uz). Tarmoqlar kesimida esa kichik biznesning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida

– 96,6%, qurilish sohasida – 78,7% hamda sanoatda – 27,0% ni tashkil etdi [2].

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun ushbu sohadagi davlat siyosatining keyingi bosqichini belgilab beruvchi rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish zarur. Bu ustuvor yo'nalishlar pastda 1-rasmda keltirib o'tildi.



1-rasm. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari [1]

1-rasmda keltirilgan xalq farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish, tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga yo'naltirilgan [3] islohotlarning ustuvor yo'nalishlarining har birini batafsil ko'rib chiqamiz:

- O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun huquqiy bazani takomillashtirish, xususan, litsenziyalash va ruxsat berish jarayonlarini soddalashtirish muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda bu borada qabul qilingan muhim qonunlardan biri «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi Qonun [4] (O'RQ-701-son, 14.07.2021-yil). Ushbu qonun litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan.

- Ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish. Ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun

to'siqlarni kamaytirish imkonini beradi. O'zbekistonda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali biznesni ro'yxatdan o'tkazishning soddalashtirilgan mexanizmlari faol joriy etilmoqda. Ruxsatnoma va litsenziyalar olish jarayonini tezlashtirish imkonini beruvchi «Yagona darcha» tizimi joriy etilib, xususiy sektor rivojiga xizmat qilmoqda.

- O'zbekistonda kichik biznesni moliyaviy va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash doirasida bir qator muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-sonli farmonga [5] muvofiq, Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi takomillashtirilib, tadbirkorlik subyektlariga samarali yordam ko'rsatish va xalqaro moliya institutlaridan mablag' jalb etish imkoniyati kengaytirildi. 2024-yil 20-yanvarda tasdiqlangan 37-sonli qarorga [6] binoan, kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash kompleks dasturi joriy etilib, moliyaviy va konsultativ yordam mexanizmlari soddalashtirildi. 2023–2026-yillarda kichik biznesni rivojlantirish uchun 17 milliard dollar ajratilishi rejalashtirilgan bo'lib, startap loyihalariga grantlar ham ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, «Kichik biznesga ko'maklashish markazlari» tashkil etilib, tadbirkorlarga ro'yxatdan o'tish, moliyaviy vositalardan foydalanish va konsultativ xizmatlar bo'yicha ko'mak berilmoqda.

- O'zbekistonda kichik biznesni klaster tashabbuslariga integratsiyalash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hududiy sanoat, agro va hunarmandchilik klasterlari tarkibida kichik biznes subyektlarini jalb qilish orqali ularning kooperatsiya imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Xususan, qishloq xo'jaligi klasterlari tarkibida fermer xo'jaliklari va kichik korxonalar uchun kontraktatsiya asosida xomashyo yetkazib berish va qayta ishlash mexanizmlari yo'lga qo'yildi. Tekstil va charm sanoati klasterlarida esa kichik tadbirkorlik subyektlariga yirik ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlik qilish, texnologik va marketing ko'mak olish imkoniyatlari yaratildi. Bu tashabbuslar kichik biznesni yirik ishlab chiqarish va eksport zanjirlariga integratsiya qilishga xizmat qilmoqda.

- O'zbekistonda ayollar va yoshlarni biznesda qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlar joriy etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-5020-son qarorida xotin-qizlarning faoliyatini kreditlash va ularning biznes loyihalariga ko'maklashish chora-tadbirlari belgilangan.[7] 2025-yilda Prezidentning PQ-96-sonli [8] qarori qabul qilindi, unga ko'ra ayollar biznes loyihalariga uchun \$200 mln ajratildi. Bu tashabbuslar inklyuziv iqtisodiyotni rivojlantirish, ayollar va yoshlarning biznesdagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

- Raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish

tadbirkorlikni rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatib, biznes jarayonlarini optimallashtirish va bozor imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Uzun Market, Click, Payme kabi platformalar tomonidan taqdim etilgan elektron tijorat va raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi biznes yuritishni soddalashtiradi va uning ommabopligini oshiradi. Ushbu sohaning normativ-huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasining «Elektron tijorat to'g'risida»gi Qonuni (29.09.2022-yildagi O'RQ-792-son) tashkil etadi, u onlayn savdoning huquqiy jihatlarini tartibga soladi, elektron bitimlarni tuzish tartibini belgilaydi va raqamli muhitda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydi.

- O'zbekiston eksport qiluvchi korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali eksportni rag'batlantirish choralari faol amalga oshirilmogda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-sentabrdagi «Eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6306-son Farmoni milliy kompaniyalarning tashqi bozorlarga chiqishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan. Mazkur farmon doirasida mahsulotlarni eksport qilishda transport xarajatlarining bir qismini subsidiyalash, eksport qiluvchilarga soliq imtiyozlari berish, valyutani tartibga solishni soddalashtirish va eksport bitimlarini sug'urtalash mexanizmlarini joriy etish ko'zda tutilgan. Ushbu chora-tadbirlar O'zbekiston tovarlarining xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirish, eksport geografiyasini kengaytirish va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi.

- O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlash va yashil iqtisodiyot tamoyillarini tadbirkorlik sohasiga integratsiya qilish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shular jumlasidan, ekologik jihatdan xavfsiz texnologiyalarni joriy etgan korxonalarga soliq va kredit imtiyozlari berilishi belgilangan. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish, chiqindilarni qayta ishlash sohasida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va ekologik toza mahsulotlarni sertifikatlash bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqilgan. Bu chora-tadbirlar ekologik barqarorlikni oshirish bilan birga, kichik biznesning raqobatbardoshligini mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, kichik biznesning kelajagi ko'p jihatdan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samaradorligi, raqamlashtirish darajasi va tadbirkorlarning yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashish qobiliyatiga bog'liq. Subsidiyalar, soliq imtiyozlari va ma'muriy tartib-taomillarni

soddalashtirish ko'rinishidagi davlat yordami tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni kamaytirishga va uning bozordagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O'z navbatida, raqamlashtirish biznes jarayonlarini optimallashtirish, avtomatlashtirish, onlayn savdo va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali sotish kanallarini kengaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Tadbirkorlarning egiluvchanligi va moslashuvchanligi ularga iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga, iste'molchilar talabiga va texnologik rivojlanishga tezkor munosabat bildirish, biznes yuritishning yangi yo'nalishlari va shakllarini topish imkonini beradi. Uzoq muddatli istiqbolda kichik biznesning faol rivojlanishi iqtisodiy o'sishning drayveriga aylanadi, bandlik darajasini oshiradi, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Jusupova Anjim Tansiqbaevna, Innovatsion taxnologiyalar universiteti «Moliya» kafedrası assistenti / Жусупова Анжим Тансыкбаевна, Доцент кафедры финансов Университета инновационных технологий / Zhusupova Anzhim Tansykbaevna, Associate Professor of the Department of Finance, University of Innovative Technologies**

► jusupova.72.72@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0005-9342-1422>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Inoyatov U.U., G'ayibnazarov B.K. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rni hamda uning ijtimoiy samaradorligini oshirish yo'llari // Iqtisodiyot va statistika. 2011. URL: <https://jurnal.org/articles/2011/ekon30.html>
- [2]. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023). Yanvar-sentabr 2023-yil yakunlari bo'yicha kichik

biznesning YAIMdagi ulushi va iqtisodiyot tarmoqlaridagi hissasi. Stat.uz. https://stat.uz/images/uploads/reliz-2023/yalpi-hudud_press_24_10_2023_rus.pdf

- [3]. Musagaliev A.J. Razvitie predprinimatel'stva v Respublike Karakalpakstan / Rinok, den'gi i kredit, №6. 2016. - S. 25-28
- [4]. Xamrayev, O. O., & Yuldasheva, N. V. (2024). O'zbekiston Respublikasida 2022-2026 yillarda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash choralari. Science and Education, 8(2), 45–57. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5457/4980>
- [5]. O'zbekiston Respublikasining «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi Qonuni, 14.07.2021 yildagi O'RQ-701-son
- [6]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-193-son Farmoni 10.11.2023 yil.
- [7]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash» kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 37-son qarori, 20.01.2024 yil.
- [8]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-sonli qarori. «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida». <https://lex.uz/ru/docs/5320584>
- [9]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-96-son qarori, 07.03.2025 yildagi, «Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» <https://www.lex.uz/uz/docs/-7422410>
- [10]. A Jusupova · 2024 — 7 (2024): «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali /; Articles. Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rni